

ISSN: 2181-4066

DOI Journal 10.56017/2181-4066

# JOPAPS




## JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

*Volume 1, Issue 4*

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ



ISSN: 2181-4066  
DOI Journal 10.56017/2181-4066

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 4-СОҢ

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-4

## PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-4

ТОШКЕНТ - 2023

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-4>

## Бош муҳаррир:

Нишонова З. – психология фанлари доктори, профессор

## Масъул муҳаррир:

Давлатов О. Ғ. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори

## Таҳририят аъзолари:

Абдужаббарова М. – педагогика фанлари номзоди, доцент  
Абдурахимов Қ. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори  
Акмалов А. – педагогика фанлари номзоди, доценти  
Акрамова Ш. – педагогика фанлари доктори, профессор  
Алиев М. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори  
Джураев Д. – педагогика фанлари доктори  
Душанов Р. – психология фанлари номзоди, доценти  
Негматовна Г. – педагогика фанлари номзоди, доцент  
Разакова Р. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори  
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори  
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори  
Тўйчиева С. – психология фанлари номзоди, доцент

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

*Психология фанлари*

**QORIYEV Mirzohid Rustamjonovich**

*Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi  
Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**KOZIMOVA Dilafruz Isroiljon qizi**

*Namangan davlat universiteti  
iqtidorli talabasi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7854455>

## YOSHLAR ONGIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O'RNI

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yoshlar ongida ekologik madaniyatni shakllantirishda oilaning o'rni, ekologik ta'lim va tarbiyaning muhim ekanligi hamda atrof muhitni asrash to'g'risida fikr mulohazalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ekologik ong va madaniyat, oilaviy ekologik savodxonlik, ekologik ta'lim, atrof-muhitni muhofaza qilish.

## THE ROLE OF THE FAMILY IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE MIND OF THE YOUNG PEOPLE

### ANNOTATION

In this article, the role of the family in the formation of ecological culture in the minds of young people, the importance of ecological education and upbringing, and opinions on environmental protection are highlighted.

**Key words:** environmental awareness and culture, family environmental literacy, environmental education, environmental protection.

## РОЛЬ СЕМЬИ В ФОРМИРОВАНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В МЫСЛЕ МОЛОДЕЖИ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье освещается роль семьи в формировании экологической культуры в сознании молодежи, значение экологического образования и воспитания, взгляды на охрану окружающей среды.

**Ключевые слова:** экологическое сознание и культура, экологическая грамотность семьи, экологическое образование, охрана окружающей среды.

Soʻnggi yillarda ekologik muammolarning soni va qamrov doirasi shu darajada kengayib kettiki, oqibatta ularni hal etish imkoniyatlari kamayib bormoqda. Ekologik muammolar koʻlami shu holda kengayishda davom etsa kelgusida ularni butkul bartaraf etish, balki, toʻxtatib qolish deyarli imkonsiz boʻlib qolishi mumkin. Shu bois, har bir inson hozirdan bu muammolarga jiddiy munosabatta boʻlishi, atrof-muhitni muhofaza qilishdek masʼuliyatli vazifaga vijdonan yondoshishi talab etiladi. Buning uchun oʻsib kelayotgan yosh avlodga ekologik savodxonlik va ekologik madaniyatni singdirish, ularni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash lozim.

Taʼkidlash joizki, ekologik muammolarning asosiy sabablaridan biri – bu aholining ekologik madaniyatini pastlab borayotganligi hamda oʻsib kelayotgan yosh avlodga ekologik taʼlim va tarbiya berishda beeʼtibor boʻlinayotganligidir. Jaxon miqyosida yuzaga kelgan ekologik tang vaziyat aholining tobora unutilib ketayotgan sof ekologik madaniyatni esga solishni, oʻsib kelayotgan yosh avlodni tabiatga boʻlgan chuqur muhabbatini uygʻotishni har qachongidanda koʻproq talab etmoqda [1].

Tabiatni asrab avaylash, unga ziyon yetkazmaslik, atrof muhitga nisbatan eʼtiborli boʻlish va qoʻpol munosabatda boʻlishni oldini olish uchun taʼlim va tarbiyaning ilk bosqichlaridan boshlab ekologik madaniyatni rivojlantirishga kirishish kerak. Shu bois, bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik savodxonligini oshirish masalasi juda dolzarb boʻlib bormoqda. Chunki, maktabgacha yoshdagi bolaning qalbi begʻubor, juda hissiy, samimiy va rahm-shafqatli boʻlib, tabiatni tirik organizm deb his qilishadi. Ayni shu davrda bolalarga yetarlicha ekologik taʼlim berilib, bilim va koʻnikmalari shakllantirilsa hamda bolalar onggiga ekologik madaniyat singdirilsa ona tabiatni sevuvchi yangi avlod ulgʻayib boradi [2].

Shaxsning ekologik madaniyati – bu tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanish, ekologik hissiyot, ehtirolarning shakllanishi, faol hayotiy nuqtai nazarda turish, ekologik bilimga ega boʻlishdan iboratdir. Shuningdek, Ekologik madaniyat deganda tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qoʻllay bilish faoliyati, atrof-muhitga nisbatan faoliyatning yuksak koʻrsatkichi, ongli va maʼsuliyatli yondashuvlaridir [3, 4].



**1-rasm.** *Yoshlar bilan tomorqadagi mehnat jarayoni*

Ayrim manbaalarda ekologik madaniyat deganda tabiatga imkoni boricha zarar keltirmaslik, tabiat va jamiyat taqdiri birligini tushunishdir deya taʼrif berilgan [5].

Keltirilgan maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, ekologik madaniyati yuksak boʻlgan inson nafaqat tabiatni ifloslantirmaydi, balki, uni asrab avaylaydi, tanazzulga yuz tutgan ekotizimlarni tiklashga harakat qiladi. Shu bois ekologik madaniyatni yoshlar onggiga singdirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Har bir shaxsda ekologik madaniyatni erta yoshlik chogʻidan boshlab shakllantirish juda muhim hisoblanadi. Bunda esa u kamol topayotgan oilaning oʻrni beqiyosdir.



Xalqimizni milliy hamda diniy qadriyatlari shaxsiy gigena, tozalik va ozodalikdan tortib o‘zi yashab turgan joyini turli xil chiqindilar bilan ifloslantirmaslik, tabiat ne‘matlarini isrof qilmaslik, atrofni ko‘kalamzorlashtirishni keng targ‘ib etadi. Ushbu tushunchalar insonlarning yoshligidanoq o‘z oilasidagi keksa avlod vakillari tomonidan ular ongiga singdirib boriladi. Demak, insonda dastlabki tushunchalar o‘z oilasida paydo bo‘ladi.

Xalqimizda “Harom-Halol”, ”UvoI”, “Gunoh-Savob”, kabi tushunchalar ko‘proq salbiy ekologik vaziyat (masalan: nonning oyoq ostiga tushishini, suvning iflos qilinishi, jonivorlarga shavqatsiz munosabatda bo‘lish, dov-daraxtlarni sindirish va boshqalar) yuzaga kelganda qo‘llaniladi. Yoshlarda shu orqali milliy ekologik xulq atvor shakllana boradi.

Xalq orasida “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan dono maqol bor. Albatta oilada kamol topib ulg‘ayayotgan farzandlarga tog‘ri va kerakli ekologik tarbiya berishda ota-onlar, bobo-buvilarning o‘rni beqiyosdir. Shu bois bobo-buvilar, ota-onalar, aka va opalar oilaning eng kichik vakillari uchun o‘rnak bo‘la olishlari lozim.

Kundalik turmush tarzidagi oddiy yumushlarda, jumladan, uy-joyini pokiza tutish, ko‘chalarga noo‘rin chiqindi tashlamaslik, hayvonlarga ozor bermaslik, daraxtlarni sindirmaslik, suvni isrof qilmaslik kabi ekologik qoidalarga amal qilish va buni yosh avlod onggiga singdirib borish zarur.

Har bir oilada yoshi kattalar tabiat, o‘simlik va hayvonot dunyosi, o‘lkashunoslik, ekoturizm kabi mavzularidagi multfilm va ko‘rsatuvlarni o‘z farzandlari bilan birga ko‘rib, uni muhokama qilishlari, uning tarbiyaviy jixatlarini yoshlarga tushuntirib berishlari, multfilmdan ko‘zlangan tarbiyaviy xulosalarni yoshlarga anglatmoqliklari juda muhim ekologik tarbiya hisoblanadi. So‘ng olingan bilimlarni tabiat qo‘ynida amaliy ishlarni bajarish orqali mustahkamlab borishlari talab etiladi. Jumladan, yoshlar bilan birga turli daraxt va gul ko‘chatlari ekib, bog‘lar tashkil etish, uy hayvonlarini parvarishlash, tomorqada turli – xil ekinlarni yetishtirish maqsadga muvofiqdir (1, 2-rasm).



*2-rasm. Yoshlar bilan tomorqadagi mehnat jarayoni*

Tomchilardan yig‘ilib dengiz hosil bo‘ladi degan naqlga muvofiq ekologik sohada qilinayotgan kichik-kichik ishlar yig‘ilib, pirovord natijada o‘lkamiz tabiati musaffoligini saqlab qolishda va kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim omil bo‘ladi. Keksavlodning oilada yurish-turishi, hatti-harakati, pand-nasihati, hayotiy tajribasi shu oilada o‘sayotgan yosh avlodga o‘rnak va ibrat bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda yoshlarning ekologik bilimlarini rivojlantirishda, ekologik madaniyatini rivojlantirishda oilaning o'рни beqiyosdir. Shu sababli har tomonlama barkamol, jumladan, ekologik madaniyati yuksak yosh avlodni tarbiyalashda quyidagi muhim amaliy ishlarni bajarish ham yaxshi natija beradi, jumladan:

- uydagi yosh bolalarga yon atrofda o'sadigan o'simlik olami vakillarini tanishtirish;
- tabiat va undagi jarayonlarni, ekologik holatlarni ertak va hikoyalar tarzida yosh avlodga so'zlab berish;
- tabiat qo'ynida nihol ekish jarayonlarini ular bilan birga bajarish;
- hayvon va qushlarga uy sharoitida inlar yasab, birgalikda ularga g'amxo'rlik qilish.
- suv hayot manbai, toza havo esa inson tanasi uchun eng muhim va zarur tabiat in'omi ekanligi to'g'risida keng dunyoqarashni hosil qilib borish.
- atrof-muhitni ifloslanishi, turli kasallik tashuvchi hashorotlarni ko'paytirib, kelgusida ular orqali yuqumli kasalliklarga chalinish holati kuzatilishi mumkin ekanligini yoshlar onggiga singdirib borish ham oiladagi yoshi katta insonlarni asosiy vazifasi bo'lmog'i lozim. Mana shunday muhit sharoitida oilada tarbiya berib borilsa, bolalarda ona tabiatga bo'lgan muhabbat ortadi. Biz tabiatga qanday munosabatda bo'lsak, tabiat ham bizga shunday munosabat bilan javob qaytarishi haqidagi tasavvur olami kengayadi.

## IQTIBOSLAR

1. Rustamjonovich, Qoriyev Mirzohid, Ubaydullayeva Muhlisa Ma'murjon Qizi, and Abdulxaqova Shodiyona Kamoliddin Qizi. "Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining ekologik savodxonligini oshirishda jonli tabiat burchaklarining o'rni." *Research Focus* 2.1 (2023): 487-490.
2. Ergasheva, T. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida qiziqarli o'yinlar yordamida ekologik ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari." *Экономика и социум* 5-2 (92) (2022): 84-87.
3. Qoriyev Mirzohid, Ubaydullayeva Muhlisa. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga ekologik ta'lim va tarbiyani kuchaytirishning zarurati xususida. *Iqtidorli talabalar ilmiy axborotnomasi*. – Namangan, 2021. – №3. – 304-309 b.
4. Vassiyev Elyor. Ekologik madaniyatni shakllantirish. [www.ipb.uz](http://www.ipb.uz). <http://www.ipb.uz/post/gjfyukyujufyummy>
5. Teshaboyev, N., A. Xalilov, and Z. Sheraliyeva. "Formation of ecological culture in young people." *Science and innovation* 1.7 (2022): 608-611.



ISSN: 2181-4066  
DOI Journal 10.56017/2181-4066

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 4-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ  
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-4

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-4

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

Веб-сайт: [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)